

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-martida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YAHM) hajmi joriy narxlarda 3140,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 5,5%ga o'sdi.

2019 yil yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 1708,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,8%ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo'shgan xissasi 3,4%ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	Mlrd.so'm		2018 y. yanvar- martiga nisbatan, % da
	2018 yil yanvar-mart	2019 yil yanvar-mart	
<b>I. YaHM</b>	<b>2367,0</b>	<b>3140,3</b>	<b>105,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	2270,1	2955,7	105,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	96,9	184,6	106,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>2270,1</b>	<b>2955,7</b>	<b>105,5</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	757,8	944,1	104,0
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	557,4	777,7	108,0
sanoat	408,7	597,9	108,8
qurilish	148,7	179,8	105,7
Xizmatlar	954,9	1233,9	105,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	174,4	216,0	109,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	220,8	237,2	100,0
boshqa xizmat tarmoqlari	559,7	780,7	106,0

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, sanoat – 108,8% (YaHM tarkibidagi ulushi 20,2%), qurilish – 105,7% (6,1%), xizmatlar-105,2% (41,8%), Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi -104,0% (31,9)ni tashkil qildi.

### 2019 yil yanvar-martda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




### Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 94,1%ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa, 5,9%ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 1,5% punktga kamaydi va hisobot yilida 31,9%ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 1,7% punktga oshdi va 26,3%ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2019 yil yanvar-mart oylarida 41,8%ni tashkil etdi va 2018 yilning mos davri (42,0%) bilan taqqoslanganda 0,2% punktga kamaydi.

## Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

### 2018 yil yanvar-mart



### 2019 yil yanvar-mart




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi – 7,3%ni (2018 yil yanvar-mart 7,7%), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 8,0%ni (9,7%), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 26,5%ni (24,6%) tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil  
yanvar-mart



2019 yil  
yanvar-mart



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Statistika faoliyatini tashkil etish va  
yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: M.Sultanmuratov  
Tel: (0-371) 230-87-65